

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA DISGRAFIYANI BARTARAF ETISHDA KORREKSION - LOGOPEDIK ISHLAR TIZIMI

¹Haqberdiyev Jamoliddin Abdug‘affor o‘g‘li-Jizzax davlat pedagogika instituti
“Maxsus pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi

²Hamidova Mohinur Niyoz qizi- Jizzax davlat pedagogika instituti 4-bosqich
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari, shaxslararo munosabatlari, ulardagi yozuv kamchililarining kelib chiqish sabablari, korreksion-logopedik ishlar tizimi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, shaxs, tizim, disgrafiya, xotira, diqqat, analiz, sintez, tasavvur, korreksiya.

Bolaning shaxs sifatida kamol topishida, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashida maktab ta’limi muhim ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy aytganidek «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir», shunday ekan bolaning ta’lim-tarbiyasiga ota-ona, o‘qituvchilar, maktab va mahalla tomonidan e’tibor berilishi zarur.

Kichik maktab davri 7 yoshdan 10 yoshgacha davom etadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o‘ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o‘quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida bolaning o‘z portfeliga, shaxsiy o‘quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo‘yish javoniga ega bo‘lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Ana shu ehtiyoj bola shaxsining shakllanishida, shuningdek uning ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bu davrda bola, fan asoslarini o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo‘ladi. Fiziologlarning fikriga ko‘ra, 7 yoshga kelib bolaning katta miya yarim sharlari ma’lum darajada rivojlangan bo‘ladi. Lekin bu yoshda inson

miyasining psixik faoliyatni rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish kabi murakkab shakllariga javob beradigan maxsus bo'limlari hali to'liq shakllanib bo'lmagan bo'ladi (miyaning bu qismlari 12 yoshda rivojlanib bo'ladi). Miyaning boshqaruv funksiyalarini to'liq shakllanib bo'lmaganligi kichik maktab yoshidagi bolalarning xulq-atvorida, faoliyatlarini tashkil etishlarida va emotsional sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar, ta'sirchan hamda emotsional bo'ladilar. Maktabda o'qishning boshlanishi 7 yoshda bo'ladigan ikkinchi fiziologik inqiroz bilan mos keladi (bola organizmida jadal bo'yning o'sishi, ichki organlarning kattalashuvi, vegetativ o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan keskin endokrin o'zgarishlar ro'y beradi). Bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimi va faoliyatidagi kardinal o'zgarishlar uning organizmidagi barcha tizimlar va funksiyalaridagi o'zgarishlarga to'g'ri kelib, boladan kuchli zo'riqish va o'z ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zaruriyatini taqozo etadi.

Kichik maktab yoshidagi ayrim bolalarda ta'lim jarayonlarida kamchiliklar uchrab turadi bulardan biri yozuv kamchiliklari hisoblanadi. Disgrafiya-bu yozuv jarayonining qisman o'ziga xos buzilishidir. Yozuv o'zida nutq faoliyatining murakkab shaklini, ko'p darajali jarayonini aks ettiradi. Unda turli xil analizatorlar: nutq eshitish, nutqni harakatga keltirish, umumiy harakatlantirish analizatorlari ishtirok etadi. Yozuv jarayonida ular orasida yaqindan bog'lanish va o'zaro aloqadorlik o'rnatiladi.

Yozuvi buzilgan bolalarda ko'pgina oliy psixik funksiyalar: qobiliyatining tahlili va sintezi, fazoviy tasavvurlar, nutq tovushlarini ko'rish-eshitish orqali farqlash, fonematik hamda bo'g'inli analiz va sintez qilish, gapni so'zlarga ajratish, nutqning leksik-grammatik tuzilishi, xotira, diqqat – e'tibor jarayonlarida, emotsional-irodaviy sohaning shakllanganligi kuzatiladi.

Maktab ta'limi jarayonida kichik maktab yoshida asosan ko'p uchraydigan yozuv kamchiliklarning asosini bolaning ilk yoshidan bilish jarayonlarining

yetarlicha rivojlantirilmaganligi, bolaning nutq eshituvida tovushlarni yetarlicha farqlay olmasligi oqibatida ham kelib chiqishi mumkin.

Kichik maktab yoshidagi bolalar bilan korreksion – logopedik ish jarayonida soʻzlarning leksik – grammatik tuzilishi, tovushlarni bir – biridan farqlash, nutqiy eshituv, nutqiy diqqat va xotira ustida ishlarni amalga oshiramiz. Bunda biz bolaga qoʻshma soʻzlarni keltirib oʻtamiz va bola bir boʻgʻinni ajratishi natijasida qanday soʻz qolishini aniqlashi lozim:

Bogʻbon-bogʻ

Guldon-gul

Kitobxon-kitob

Toshloq-tosh

“Harflarni oʻz oʻrniga qoʻyamiz” bu topshirigʻimizda umumlashtiruvchi soʻzlarni ishlatishimiz mumkin:

Mevalar: loma (olma); rona (anor); kon(nok).

Sabzavotlar: mipodor (pomidor); ramka (karam).

“Sehrli soʻzlar” bunda bolaga uzun jumladan iborat soʻz beriladi va bu jumlada qanday soʻzlar ishtirok etganligini aniqlashi zarur hisoblanadi:

Mashinatrazum (mashina, uzum);

Kamushukurburgut (mushuk, burgut);

Adaraxtshirasm (daraxt, rasm).

“Diqqatli boʻl” bu topshirigʻimizda bolalarga unli va undosh xarf keltiladi va bolaga ikkita boʻlgan harfni oʻchir va Oʻzbekiston shaharlari nomini topish kerakligi tushuntiriladi;

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz kerakki kichik maktab yoshidagi bolalardagi yozuv kamchiliklarini bartaraf etishda oʻqituvchi, logoped, ota-onalar oʻrtasidagi hamkorlik izchillik bir butun tizim asosida ish olish natijasi oʻz ijobiy natijasini koʻrsatadi. Kichik maktab yoshidagi bolaning nutqi, yirik va mayda qoʻl motirikasi, nutqiy eshituv, nutqiy diqqat, nutqiy xotirasi doimiy ravishda taʼlim va tarbiya jarayonida rivojlantirib borilishi muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Logopediya: darslik/M.Y. Ayupova. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. -560b.
2. E G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi/darslik /. Toshkent: "NIF MSH", 2020, 288 bet
3. Агранович, З. Е. В помощь логопедам и родителям: сборник домашних заданий для преодоления недоразвития фонематической стороны речи у старших дошкольников [Текст]/ З. Е. Агранович. - СПб. 2007.-180с.
4. Аксенова, А. К. Методика обучения русскому языку в коррекционной школе: методическая пособие [Текст]/А. К. Аксенова .- М.: ВЛАДОС. 1999.-304с.
5. Haqberdiyev, J. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLIY RIVOJLANISHIDA KAMCHILIGI BOR BO'LGAN BOLALARNING O'YINLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA KORREKSION ISHLARINING XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4).
6. Haqberdiyev, Jamoliddin. (2020). BOLALARNING MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI MASALALARI. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(70).
7. haqberdiyev, jamoliddin. (2020). THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNICAL DEVICES IN THE DEVELOPMENT OF HEARING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(64). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6183
8. haqberdiyev, jamoliddin. (2020). THE IMPORTANCE OF COCHLEAR IMPLANT IN THE EDUCATIONAL SYSTEM OF CHILDREN WITH HEARING DISORDERS . *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(80). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6742

9. haqberdiyev jamoliddin "KOXLEAR IMPLANTATSIYADAN KEYIN BOLA QANDAY REABILITATSIYAGA MUHTOJ?" Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari [https:// ppmedu.jspi.uz](https://ppmedu.jspi.uz)
10. haqberdiyev jamoliddin, mannonova nozima NUTQNING KECHIKISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
11. Haqberdiyev, J. (2021). MAXSUS MAKTAB -INTERNATDA KOKLEAR IMPLANTLI BOLALARDA NUTQIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2631>
12. Haqberdiyev, J. (2022). KOXLEAR IMPLANTAT BOLALARDA OG'ZAKI NUTQNI IDROK ETISHNI O'RGANISH VA RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK USULLAR. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4747>
13. Haqberdiyev, J. (2021). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЗАДЕРЖКУ РЕЧИ И ПУТИ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1204>
14. Haqberdiyev, J. (2021). KOXLEAR IMPLANTATSIYADAN KEYIN BOLANI REABILITATSIYA QILISH MASALALARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/713>
15. Haqberdiyev J. MAKTABGACHA YOSHDAGI KOXLEAR IMPLANTANT BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYAT VOSITASIDA NUTQINI RIVOJLANTIRISH. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference https://zenodo.org/record/5855156#.YfuJ_99BzIU